

O‘ZBEKISTONDA SHAXS BEFARQLIGINI BARTARF ETISHDA VATANPARVARLIK TARBIYASINING ROLI

Kenjayev Ulug‘bek Muratovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada vatanparvarlik tarbiyasining bugungi kundagi mohiyati, shaxs befarqligini oldini olishda, inson kamoloti, hayotning mohiyati, ilm va tafakkurning inson kamolotiga ta’siri, ruhiy-ma’naviy va axloqiy tarbiyasining ahamiyati va vatanparvarlikni shakllantirish yo‘llari to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritilgan. Shaxs befarqligiga barham berishning asosiy omillaridan biri vatanparvarlik tarbiyasini mazmunan boyitish bilan bog‘liqligi asoslangan. Vatanparvarlik tarbiyasi mazmunining boyitilishi esa shaxsni nafaqat befarqlik girdobidan xalos qiladi, balki uni Vatan manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga ham tayyorlaydi. Maqolada shaxs befarqligiga barham berish yo‘lida ushbu omillardan foydalanishga doir qator takliflar ilgari suriladi. O‘zbekistonda jamiyat a‘zolari orasida befarqlikning ildiz otishi sabablari jamiyatda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan qator ijtimoiy jarayonlar va bu jarayonlarning shaxs ongi va faoliyatiga ta’siri bilan bog‘liqligi asoslangan. Shuningdek, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi turfa ijtimoiy kayfiyatlar qatorida befarqlikning mamlakatga kirib kelishiga sabab bo‘lgani ko‘rsatiladi. O‘zbekistonda jamiyat a‘zolarida befarqlik illatining mavjud darajasi ham e’tibor qaratish zarur bo‘lgan ijtimoiy oqibatlarga olib kelmoqda. Maqolada bu oqibatlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, Yangi O‘zbekiston, vatanparvarlik, islohotlarga daxldorlik, fuqarolik burchi.

РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УДАЛЕНИИ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Кенжаев Улугбек Муратович

**научный сотрудник Навоийского государственного
педагогического института**

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность патриотического воспитания сегодня, предотвращение личностного безразличия, зрелость человека, сущность жизни, влияние науки и мышления на зрелость человека, значение духовно-нравственного и нравственного воспитания и пути формирования патриотизма. Один из главных факторов прекращения личностного безразличия основан на содержательном обогащении патриотического воспитания. Обогащение содержания патриотического воспитания не только освобождает человека от водоворота равнодушия, но и готовит его к труду на благо интересов Родины. В статье выдвигается ряд предложений по использованию этих факторов в целях устранения личностного безразличия. Причины безразличия членов общества в Узбекистане основаны на ряде социальных процессов, происходивших и происходящих в обществе, и влиянии этих процессов на сознание и деятельность личности. Также показано, что присоединение Узбекистана к мировому сообществу вызвало равнодушие к вхождению в страну среди различных социальных настроений. Нынешний уровень безразличия членов общества в Узбекистане имеет социальные последствия, требующие внимания. В статье обобщаются и анализируются эти последствия.

Ключевые слова: современность, образование, Новый Узбекистан, патриотизм, вовлеченность в реформы, гражданский долг.

THE ROLE OF PATRIOTIC EDUCATION IN REMOVING PERSONAL INDIFFERENCE IN UZBEKISTAN

Kenjayev Ulugbek Muratovich

Researcher of the Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. In this article, the essence of patriotic education today, prevention of personal indifference, human maturity, the essence of life, the influence of science and thinking on human maturity, the importance of spiritual, moral and moral education and ways of forming patriotism are discussed. considered. One of the main factors of ending personal indifference is based on the content enrichment of patriotic education. The enrichment of the content of patriotic education not

only frees a person from the vortex of indifference, but also prepares him to work for the interests of the Motherland. The article puts forward a number of proposals for the use of these factors in order to eliminate personal indifference. The causes of indifference among members of society in Uzbekistan are based on a number of social processes that have occurred and are occurring in society and the impact of these processes on the individual's consciousness and activities. Also, it is shown that the joining of Uzbekistan to the world community caused indifference to enter the country among various social moods. The current level of indifference among society members in Uzbekistan has social consequences that require attention. The article summarizes and analyzes these consequences

Key words: modernity, education, New Uzbekistan, patriotism, involvement in reforms, civic duty.

Kirish.

Yangi O'zbekistondagi yangilanishlar jarayonida milliy madaniyatni, xususan xalqning azaliy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analarini tiklash, kishilarning madaniy merosga munosabatlarini o'zgartirish masalalari davlatning alohida e'tibori ostida kechmoqda. Buning natijasida bir tomondan, jamiyat a'zolari milliy urf-odatlar va an'analarning faol ishtirokchilariga aylanayotgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan esa, davlatning madaniy siyosati sharofati bilan tiklangan mehr-oqibat, hamjihatlik, xayrihohlik, o'zaro yordam kabi qadriyatlar kishilarni jamiyatning boshqa a'zolarida, yuz berayotgan voqealarga e'tiborli bo'lishga odatlantirmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan ustuvor vazifalar jamiyat a'zolarining ijtimoiy jarayonlarga qiziqishlarini saqlab turishga, ularni befarqlik illatidan sug'urta qilishga xizmat etmoqda. Bu ishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri "ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish" [1:1] bilan bog'lanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar fuqarolarning ijtimoiy

jarayonlar haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik faoliyati ishtirokchisiga aylantirishga hissa qo'shmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatda tizimli ravishda amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar fuqarolarni ijtimoiy jarayonlarga jalb qiluvchi, ularni Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslikka undovchi mustahkam mexanizm vazifasini o'tab keldi va kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Globallashuv davrida kechayotgan shiddatli jarayonlar esa jahonning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham kishilarda befarqlik alomatlarini keltirib chiqarmoqda. Xususan ular:

kishi ruhiyatida o'z hayoti va taqdiriga befarqlik;

jamiyatning ayrim a'zolari ruhiyatida ijtimoiy jarayonlarga befarqlik;

ekologik vaziyatga befarqlik;

iste'mol befarqligi;

axloqiy befarqlik;

estetik befarqlik;

axborot befarqligi;

mafkuraviy jarayonlarga befarqlik shakllarida namoyon bo'lmoqda.

Ilmiy manbalar va real voqelikka doir fakt va argumentlar tahlili ko'rsatadiki, O'zbekistonda qaror topgan ijtimoiy turmush tarzi asrlar mobaynida befarqlikning keng ildiz otishiga imkon qoldirmay kelgan. Yangi taraqqiyot davridagi islohotlar jamiyat a'zolarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirar ekan, ularni befarqlik illatidan samarali muhofaza ham qilmoqda. Mamlakatda qaror topgan ijtimoiy fanlarni o'qitish tizimi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar majmui jamiyat a'zolarining ijtimoiy jarayonlarga qiziqishlarini yuqori darajada saqlab turayapti. Biroq yangi asrda vujudga kelgan shart-sharoitlarda jamiyatning ayrim a'zolari ruhiyatida o'z hayoti va taqdiriga, ijtimoiy jarayonlarga, ekologik vaziyatga, iste'molchilik xarakteriga, axloqiy va estetik normalarga, axborotlar tabiatiga, mafkuraviy jarayonlarga befarqlik alomatlari yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada befarqlik holati va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxs befarqligiga barham berish uchun nafaqat uning iqtisodiy, ekologik, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, madaniy, mafkuraviy xabardorligi darajasini oshirish, balki vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g'oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlari yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash ham zarur. Chunki Vatan tuyg'usiga ega bo'lgan, vatanparvarlik g'oyasini chuqur o'zlashtirgan, Vatan manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishga ko'nikkan shaxsgina yurtda yuz berayotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmaydi hamda o'zi o'zlashtirgan axborotlar, bilimlar va tajribalarni ushbu manfaatlarni qondirish sari yo'naltiradi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g'oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlari yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash uchun esa vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish taqozo qilinadi. Binobarin, mazmunan boy, aniq vazifalarga yo'naltirilgan, turli yo'nalishlarda zamonaviy uslub va shakllarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilgan vatanparvarlik tarbiyasi shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham beruvchi muhim omillardan biridir.

Vatanparvarlik tarbiyasi – shaxsning vatanparvarlik tuyg'ularini, vatanparvarlik g'oyasidan xabardorligini va vatanparvarlik faoliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaning o'ziga xos shaklidir [2:151-155]. Uning asosiy maqsadi vatanparvar shaxsni voyaga yetkazish bilan bog'liq. Vatanparvarlik tarbiyasi vazifalari, yo'nalishlari, shakllari, uslublari va tamoyillari esa davr talablariga monand ravishda o'zgara va rivojlana boradi.

Tarbiyaning mazkur shakli jamiyat hayotida ham, shaxs ma'naviy kamolotida ham muhim o'rin tutadi. Bir tomondan, vatanparvarlik tarbiyasi ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish, shaxslararo hamkorlikni takomillashtirish imkonini beradi. Millatning madaniy merosi, xususan an'analari, urf-odatlarini saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazishda ham vatanparvarlik tarbiyasining

ahamiyati beqiyosdir. Mazmunan boy va to'g'ri metodologik pozitsiyadan amalga oshirilgan vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolarni Vatan manfaatlari sari safarbar qilib turadi. Ikkinchi tomondan esa, vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolik ongini rivojlantirishga, faol va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Mas'uliyat, halollik, mehnatsevarlik, hamdardlik kabi fazilat va xislatlarni shakllantirish orqali shaxs ma'naviy olamini yuksaltiradi, uning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Vatanparvarlik tarbiyasi shaxs befarqligini bartaraf etishning ham muhim omillaridan biridir. Chunki, biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'z Vatani chuqur his qilgan, vatanparvarlik g'oyasini o'z dunyoqarashi negiziga aylantirgan, Vatan manfaatlardan boxabar bo'lgan, ularni e'zozlay oladigan, o'z hayotiy va kasbiy faoliyatini ana shu manfaatlarga yo'naltirgan inson yurtida kechayotgan turfa jarayonlar, voqealar, hodisalarga befarq qarab turmaydi, ularda ishtirok etishga, o'z Vatani ravnaqiga hissa qo'shishga intiladi.

Aynan shuning uchun ham O'zbekistonda vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish, uning imkoniyatlariga tayanib, befarqlikning turli shakllariga barham berish masalalariga jiddiy e'tibor berib kelinadi. Xususan, mahallalar, ta'lim maskanlari, jamoat tashkilotlarida vatanparvarlik tarbiyasiga bag'ishlangan tadbirlarga an'anaviy tus berilgan. Vatanparvarlik tarbiyasini yangicha mazmun bilan boyitish zaruriyati kun sayin ortib borayotganini, ushbu masala mamlakat xavfsizligiga dahldor vazifaga aylanayotganini O'zbekiston Prezidenti ham alohida ta'kidlab o'tdi. "Bugungi kunda,- dedi u Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida, - har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur" [3;1].

Davlat rahbari kun tartibiga qo'ygan vazifani ado etish, ya'ni vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish, uning imkoniyatlariga tayanib, befarqlikning turli shakllariga barham berish uchun tarbiyaning mazkur shakli quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmog'i lozim, deb hisoblaymiz:

birinchidan, vatanparvarlik tarbiyasi imkoniyatlariga tayangan holda shaxs befarqligiga barham berish uchun uni Vatan tuyg'usini shakllantirishga

yo'naltirmoq lozim. Shaxs befarqligiga barham beradigan Vatan tuyg'usini shakllantirish uchun tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillardan oqilona foydalanish kerak bo'ladi. Jumladan, shaxsning millat tarixiga doir bilim va tasavvurlarini kengaytirish orqali unda ajdodlar bilan bog'liqlik, Vatan taqdiri va tarixiga dahldorlik tuyg'ularini yuzaga keltirish mumkin. Vatan tuyg'usini shakllantirishda madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Shaxsning milliy madaniyat, ya'ni milliy til, adabiyot va san'at, milliy qadriyatlarga doir bilimlarini yuksaltirish, uni turfa urf-odat va an'analarning faol ishtirokchisiga aylantirish orqali muayyan sotsiumga dahldorlik hissini hosil qilish mumkin. Vatan tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy omillarning ham o'z o'rnini bor. Zotan, shaxsning boshqa jamiyat a'zolari bilan gumanistik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali uni Vatan qadrini his etishga tayyorlash mumkin. Ushbu mulohazalar jamiyat a'zolarida Vatan tuyg'usini shakllantirish va yuksaltirishga qaratilgan choralar majmuini aniqlab olish imkonini beradi. Shunday qilib:

- kishilarda Vatan tuyg'usini yuksaltirish uchun ularning O'zbekiston tarixiga doir bilim va tasavvurlarini kengaytirish ishlariga tizimli tus bermoq darkor;
- kishilarda Vatan tuyg'usini yuksaltirish uchun ularning milliy madaniyatga doir bilim va tasavvurlarini kengaytirish ishlariga tizimli tus bermoq darkor;
- kishilarda Vatan tuyg'usini yuksaltirish uchun jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy zaminlarini mustahkamlash zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, vatanparvarlik tarbiyasi imkoniyatlariga tayangan holda shaxs befarqligiga barham berish uchun uni vatanparvarlik g'oyasini singdirishga yo'naltirmoq lozim. Vatanparvarlik g'oyasi shaxs taqdiri Vatan taqdiri bilan hamohang ekanligini, inson o'z Vatanini qadrlashi, uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini, har qanday hayotiy vaziyatda ham unga sodiq qolishi kerakligini uqdiruvchi mulohazalar va xulosalarni mujassam etadi. Vatanparvarlik g'oyasi shaxsga ikki omil yordamida singdiriladi. Avvalo, buning uchun jamiyatdagi ta'lim tizimi yoshlarni vatanparvarlik g'oyasi bilan qurollantirishga

moslashtirilgan bo'lmog'i darkor. Bundan tashqari, ushbu g'oya jamiyatning madaniy-ma'rifiy tashkilotlari sa'y-harakatlari orqali ham targ'ib va tashviq etib borilmog'i kerak. Ushbu mulohazalar jamiyat a'zolariga vatanparvarlik g'oyasini singdirishga qaratilgan choralar majmuini aniqlab olish imkonini beradi. Shunday qilib:

- yoshlarning vatanparvarlik g'oyasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun ta'lim tizimining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish choralarini ko'rish kerak;

- yoshlarning vatanparvarlik g'oyasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun madaniy-ma'rifiy tizim imkoniyatlaridan kengroq foydalanish choralarini ko'rish kerak.

- Uchinchidan, vatanparvarlik tarbiyasi imkoniyatlariga tayangan holda shaxs befarqligiga barham berish uchun uni kishilarni vatanparvarlik faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirmoq lozim. Vatanparvarlik faoliyati shaxsning Vatan manfaatlarini ro'yobga chiqarish, uning tabiati, madaniyati va tarixini asrab-avaylashga qaratilgan sa'y-harakatlari majmuidan tarkib topadi. Shuningdek, o'z kasb-korini puxta o'zlashtirish, egallangan kasbiy bilimlarni esa Vatan manfaatlari yo'lida safarbar qilish ham vatanparvarlik faoliyatining yorqin timsolidir. Shaxsni vatanparvarlik faoliyatiga jalb qilishning bir necha jihatlari mavjud. Avvalo, buning uchun uning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi ishtiroki ta'minlanmog'i lozim. Bu borada shaxsning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, turli milliy an'analarda ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi shaxsni vatanparvarlik faoliyati bilan ongli ravishda shug'ullanishga tayyorlaydi, bu faoliyatni uning odatiy ehtiyojiga aylantiradi. Ushbu mulohazalar jamiyat a'zolariga vatanparvarlik g'oyasini singdirishga qaratilgan choralar majmuini aniqlab olish imkonini beradi. Shunday qilib:

- jamiyat a'zolarini fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, turli milliy an'analarda ishtirok etishning zamonaviy modellari bilan tanishtirish ishlarini yo'lga qo'yish zarur;

- fuqarolarni vatanparvarlik faoliyatiga jalb qilishda majburiylik elementlaridan butkul voz kechish kerak. Bu boradagi har qanday majburiylik vatanparvarlik faoliyatining obro'sizlanishiga va pirovardi-da kishilarning undan bezishiga sabab bo'ladi;

- fuqarolik erkinliklarini muttasil kengaytirib borish qonun ijodkorligining doimiy amal qiladigan metodologik tamoyiliga aylantirilmog'i lozim. Chunki keng haq-huquqlar va erkinlikka ega bo'lgan shaxsgina vatanparvarlik faoliyati bilan astoydil shug'ullana boshlaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, shaxs befarqligiga barham berish uchun uning ijtimoiy xabardorligi darajasini oshirish bilan bir qatorda vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g'oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlarini yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash ham zarur bo'ladi. Bu vazifani vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha mazmun baxsh etish orqali amalga oshirish mumkin. Vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish, uning imkoniyatlariga tayanib, befarqlikning turli shakllariga barham berish uchun uni uch asosiy yo'nalishda - vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, vatanparvarlik g'oyasini singdirish, vatanparvarlik faoliyatiga tayyorlash borasida olib bormoq lozim. Vatanparvarlik tarbiyasining aqliy, axloqiy, huquqiy, mehnat tarbiyasi bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi uning samarasini yanada oshiradi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini befarqlik alomatlarini bartaraf qiluvchi omilga aylantirish uchun uni bir vaqtning o'zida bir necha shakllarda aniq tamoyillar asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”.// lex.uz/docs/5344692

2. Турсунов И.И. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш.// Талқин ва тадқиқотлар, 2023, №18.- 151-155-б.;

3. Чемериловa И.А., Морозов С.И. Патриотическое воспитание современных школьников.// Инновационная наука, 2016, №12-3, 119-121-с

4. Ўзбекистон Президенти Хавфсизлик Кенгашининг кенгайтирилган йиғилишини ўтказди.// president.uz, 2024, 12 январь